


2019 yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtda viloyatda 16,2 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 9,6 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 59,2 % ni tashkil etdi.

2019 yil 1 iyun holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 5,4 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2019 yil 1 iyun holatiga ko'ra, ularning ulushi 82,4 % tashkil etdi.

**2019 yil 1 iyun holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %**



2019 yil 1 iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (34,4 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 11,0 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

2019 yil 1 iyun holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1474,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,2 % ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-may oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2019 yil yanvar-vay oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 348,9 mlrd. so'mga oshdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (147,6 mlrd. so'm), savdo xizmatlari hajmi (98,2 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (25,8 mlrd. so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (21,0 mlrd.so'm), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (11,5 mlrd.so'm) oshganligi kuzatildi.

2018-2019 yil yanvar-may oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Ma'lumot uchun: 2018 yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari 98,2 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar 147,6 mlrd. so'm, transport xizmatlari 25,8 mlrd. so'mga oshdi.

2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1474,6	121,2
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	77,4	109,6
moliyaviy xizmatlar	301,5	193,2
transport xizmatlari	249,1	101,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	237,3	100,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	45,2	110,9
savdo xizmatlari	498,9	110,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	40,2	106,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	63,8	138,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	22,8	135,6
ijara xizmatlari	32,5	101,8
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	40,4	101,6
shaxsiy xizmatlar	45,2	101,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	20,7	191,9
boshqa xizmatlar	36,8	107,0

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (193,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (191,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (138,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (135,6 %), kabi xizmat turlarida qayd tildi.


2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (101,3 %), transport va Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (101,6 %), ijara xizmatlari (101,8 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismigan yuqorisini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2019 yil yanvar-may oylarida uning ulushi 33,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni moliyaviy xizmatlar (20,4 %), transport xizmatlari (16,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,3 %) egallaydi.

2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi %




2019 yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari hajmi 498,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 33,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining o'sish sur'ati 110,8 % ni tashkil etdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 82,8 % ni tashkil etadi.



Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,7 % ga yetdi.


Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,5 % ni tashkil qiladi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019 yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 301,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 193,2 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (91,7 %) etakchilik qilmoqda

2019 yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2019 yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 63,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 138,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 45,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,1% ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 90,2 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 9,8 % ga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har yilda o'sishi kuzatilmoqda. 2019 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1088,0 ming so'mga teng bo'lib o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 118,7 % tashkil etdi. O'tgan yilning shu davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 848,0 ming so'mni tashkil qilgah. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 240,0 ming so'mga oshdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

72-222-79-69

71-230-83-58